“TASDIQLAYMAN”
“O‘zbekiston respublikavalyuta birjasi” AJ
Bosh direktori

_____

R. R. Usmanov

“UZCE quiz” VIKTORINASINI O‘TKAZISh QOIDALARI

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu Qoidalar “UZCE quiz” viktorinasi (keyingi o‘rinlarda — “Viktorina”)ni tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

1.2. Viktorina tashkilotchisi “O‘zbekiston respublika valyuta birjasi” AJ (keyingi o‘rinlarda “O‘zRVB” yoki “Tashkilotchi”deb yuritiladi) hisoblanadi.

1.3. Viktorina har yili O‘zbekiston Respublikasi hududida “Global pul haftaligi” (“Global Money Week”) o‘tkaziladigan davrda o‘tkaziladi.

Viktorinani o‘tkazishning aniq sanasi Tashkilotchi tomonidan belgilanadi va O‘zRVBning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida rasman e’lon qilinishi lozim.

1.4. Viktorina keng auditoriyani moliya sohasining asosiy tushunchalari va prinsiplari bilan tanishtirish, aholining moliyaviy savodxonligini hamda O‘zRVB faoliyati to‘g‘risida xabardorligini oshirish, shuningdek, moliyaviy ta’limning ahamiyatiga yoshlar e’tiborini jalb qilish maqsadida o‘tkaziladi.

1.5. Viktorinada haqiqiy ishtirok etish ixtiyoriy va ishtirokchilar Tashkilotchining www.uzrvb.uz veb-saytida (keyingi o‘rinlarda “Sayt” deb ataladi) joylashtirilgan ushbu Qoidalarda belgilangan talablarga to‘liq rioya etishga roziligini bildiradi. Qoidalar Tashkilotchi tomonidan Viktorinaning barcha potensial ishtirokchilariga qaratilgan ommaviy oferta hisoblanadi.

1.6. Viktorina https://quiz.uzrvb.uz/ maxsus platformasida o‘tkaziladi.

2. VIKTORINA IShTIROKChILARI

2.1. Viktorina ishtirokchisi sifatida 18 (o‘n sakkiz) yoshga to‘lgan muomalaga layoqatli va O‘zbekiston Respublikasi hududida yashovchi jismoniy shaxs tan olinadi.

Viktorinada quyidagilarning qatnashishi taqiqlanadi: muomalaga layoqatsiz, voyaga yetmagan shaxslar, O‘zRVB xodimlari (shu jumladan

fuqaroviy huquqiy shartnomasi bo‘yicha ishlayotgan) va ularning yaqin qarindoshlari (shu jumladan turmush o‘rtog‘i, farzandlari, ota-onalari va boshqalar), shuningdek Viktorinani tashkil etishga jalb qilingan yuridik va jismoniy shaxslar.

2.2. Ishtirokchi Viktorinada qatnashish bilan bog‘liq huquqlarini uchinchi shaxsga (shaxslarga) berishga va/yoki boshqacha usullarda voz kechishga haqli emas.

2.3. Viktorina o‘tkazilishi va viktorina bilan bog‘liq ma’lumotlarni e’lon qilish maqsadida ishtirokchi viktorinada qatnashgan yoki g‘alaba qozongan taqdirda, uning shaxsiy ma’lumotlari (to‘liq ismi-sharifi), Viktorinadagi ishtiroki bilan bog‘liq fotosuratlar, videotasvirlar va intervyular Tashkilotchi tomonidan quyidagicha joylashtirilishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri so‘zsiz rozi ekanligini anglatadi:

2.3.1. Tashkilotchining rasmiy veb-saytida hamda https://www.facebook.com/uzceinfo, https://www.instagram.com/uzceinfo/, https://twitter.com/uzceinfo ijtimoiy tarmoqlarida, https://t.me/uzceinfo Telegram kanalida va https://www.youtube.com/@uzcechannel videoxostingida joylashtiriladi;

2.3.2. OAVda (bosma nashrlar, internet-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar) nashr etiladi.

Bundan tashqari, ishtirokchi Tashkilotchining ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida joylashtirilgan Qoidalarni to‘liq va shartsiz qabul qilishini, shuningdek ishtirokchining maxsus platformada ro‘yxatdan o‘tish paytida taqdim etilgan shaxsiy ma’lumotlarini quyidagi maqsadlar uchun foydalanishiga rozilik bildiradi:

Tashkilotchi tomonidan o‘tkaziladigan reklama, marketing va boshqa dasturlarda (o‘yinlar) qatnashishga;

aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlarni o‘tkazishga;

marketing va/yoki statistik, shuningdek boshqa tadqiqotlarni o‘tkazishga;

Tashkilotchi va uchinchi shaxslarning qo‘shma xizmatlari, mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi “Reklama to‘g‘risida”gi Qonunining 4-moddasida keltirilgan “reklama” tushunchasi doirasidagi ma’lumotlarni ishtirokchiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa o‘rnatgan holda turli aloqa vositalari, jumladan (cheklovsiz) pochta jo‘natish, ishtirokchining elektron pochta (e-mail) manziliga yuborish, mobil telefoniga (SMS orqali) xabar yuborish, push-bildirishnomalarni yuborish orqali xabardor qilishga;

Tashkilotchi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarishga.

2.4. Viktorina G‘olibi deb tan olingan ishtirokchi Tashkilotchining so‘roviga asosan qo‘shimcha haq talab etmagan holda intervyu, foto va videos’emkada qatnashishi, shuningdek, Tashkilotchiga Viktorina davomida internet tarmoqlari orqali e’lon va maqolalarda Viktorina haqida reklama ma’lumotlarini tarqatishda ushbu materiallardan foydalanish huquqini beg‘araz taqdim etishi lozim.

2.5. Tashkilotchi Viktorina ishtirokchisini ushbu Qoidalarda belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirish huquqiga ega.

2.6. Ishtirokchi Viktorinada faqat bir marta qatnashishi mumkin.

2.7. Viktorina ishtirokchisi o‘z ishtirokini muddatidan oldin tugatish huquqiga ega.

3. VIKTORINADA QATNAShISh ShARTLARI

3.1. Viktorinada qatnashish uchun ishtirokchi:

ro‘yxatdan o‘tish shaklini to‘liq to‘ldirib, platformada ro‘yxatdan o‘tishi;

Viktorinaning har bir bosqichi vazifalarini bajarishi lozim.

4. VIKTORINA BOSQIChLARI

4.1. Viktorina uch bosqichdan iborat:

Birinchi bosqich: “Yopiq savollar” — tegishli javob variantlari bilan 15 ta savol. Har bir javob uchun 30 soniya vaqt ajratiladi. Har bir to‘g‘ri javob uchun 2 ball beriladi.

Ikkinchi bosqich: “Ochiq savollar” — to‘liq javoblari tegishli maydonchalarga kiritilishi kerak bo‘lgan 10 ta savol. Har bir javob uchun 50 soniya vaqt ajratiladi. Har bir to‘g‘ri javob uchun 4 ball beriladi.

Uchinchi bosqich: “Vaziyatli masalalar” — moliyaviy savodxonlik mavzusida 5 ta vazifa. Har bir javob uchun 2 daqiqa vaqt ajratiladi. Har bir to‘g‘ri javob uchun 6 ball beriladi.

4.2. Viktorinaning har bir bosqichida platformada bajarilishi kerak bo‘lgan yangi vazifalar ochiladi. Tegishli bosqich tugashi bilan vazifalar yopiladi.

4.2.1. Har bir bosqichdagi vazifalar 5-15 ta savollardan iborat. Har bir bosqichning vazifalari birinchi urinishda belgilangan vaqt ichida bajarilishi lozim.

4.2.2. Viktorinaning barcha vazifalari bevosita yoki bilvosita moliya, investitsiyalar, moliyaviy vositalar, birja sohasi va O‘zRVB faoliyati bilan bog‘liqdir.

5. MUKOFOT JAMG‘ARMASI

5.1. Viktorinaning mukofot jamg‘armasi Tashkilotchi tomonidan shakllantiriladi va Viktorina g‘oliblariga sovg‘alar taqdim etish maqsadida taqsimlanadi. Mukofot jamg‘armasi quyidagi sovrinlardan iborat:

1-o‘rin — Noutbuk va Viktorinada qatnashganligi to‘g‘risidagi sertifikat;

2-o‘rin — Planshet va Viktorinada qatnashganligi to‘g‘risidagi sertifikat;

3-o‘rin — “Aqlli” kolonka va Viktorinada qatnashganligi to‘g‘risidagi sertifikat.

5.2. Rag‘batlantiruvchi sovrinlar 5 ta brendlangan to‘plamdan iborat bo‘lib, ularning har biriga quyidagilar kiradi:

- krujka yoki termos;

- stikerpak;

- kalkulyator;

- prujinali A5 bloknot;

- ruchka;

- paket.

6. MUKOFOTLASh TARTIBI VA MUDDATI

6.1. G‘oliblarni e’lon qilish va xabardor qilish viktorina yakunlangandan so‘ng 10 ish kuni ichida amalga oshiriladi.

Tashkilotchi G‘oliblarning ismlarini veb-saytda, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarda e’lon qiladi va ularga tegishli xabar yuboradi.

6.2. Viktorinada eng ko‘p ball to‘plagan 3 ishtirokchi G‘olib deb topiladi.

Agar ikki yoki undan ortiq ishtirokchi bir xil ball to‘plagan bo‘lsa, eng kam umumiy vaqt ichida Viktorinaning barcha bosqichlaridan o‘tgan ishtirokchi ustunlikka ega bo‘ladi.

Umumiy vaqt bir xil bo‘lgan holatda, vaziyatli topshiriqlar bosqichida ko‘proq ball to‘plagan ishtirokchiga ustunlik beriladi.

Yuqorida koʻrsatilgan barcha mezonlar toʻliq mos kelgan taqdirda, gʻolib Tashkilotchi tomonidan qoʻshimcha mezonlar, shu jumladan — ochiq savollardagi ta’riflarning aniqligi va vaziyatli masalalarni yechish sifati asosida aniqlanadi.

6.3. Agar Viktorina ishtirokchisi roʻyxatdan oʻtish jarayonida oʻzi toʻgʻrisida notoʻgʻri ma’lumotlarni kiritgan boʻlsa, Tashkilotchi Viktorinada gʻalaba qozongan ishtirokchiga xabar bermaganligi uchun javobgar emas.

6.4. Quyidagi holatlarda Tashkilotchi Gʻolibni tanlash boʻyicha Viktorina natijalarini qayta koʻrib chiqish va boshqa Gʻolibni e’lon qilish huquqiga ega:

Viktorina ishtirokchisi oʻzi haqida ma’lumotlarini taqdim etmagan yoki notoʻgʻri ma’lumot taqdim etgan boʻlsa;

Viktorina Gʻolibi sovrindan voz kechsa.

6.5. Sovrindorlar va gʻoliblarga sovrinlarni topshirish OʻzRVB ofisida sana va vaqtda, har bir gʻolibni oldindan xabardor qilgan holda oʻtkaziladi.

Topshirish sanasi va vaqti haqidagi ma’lumot Gʻoliblarga roʻyxatdan oʻtishda koʻrsatilgan aloqa ma’lumotlari boʻyicha telefon qoʻngʻirogʻi va/yoki xabar (SMS, messenjer yoki elektron pochta) orqali yuboriladi.

6.6. Viktorina Gʻoliblarining ism-shariflari roʻyxatdan oʻtishda koʻrsatilgan ma’lumotlarga mos kelishi kerak.

6.7. Viktorina gʻoliblari taqdirlash marosimida shaxsan ishtirok eta olmagan taqdirda, Tashkilotchi sovrinni oʻz hisobidan yetkazib berishi mumkin.

7. YaKUNIY QOIDALAR

7.1. Tashkilotchi ushbu qoidalarga oʻzgartirishlar kiritish huquqiga ega.

7.2. Tashkilotchi texnik nosozliklar, shu jumladan elektron xabarlarning kechikishi, shuningdek Viktorina ishtirokchilariga aloqa xizmatlarini koʻrsatuvchi internet va mobil provayderlarining aybi bilan yuzaga kelgan boshqa texnik nosozliklari uchun javobgar emas.

7.3. Tashkilotchi Gʻolib boʻlmagan Viktorina ishtirokchilarini mukofotlash uchun qoʻshimcha mukofot jamgʻarmasini tashkil etish huquqiga ega.

7.4. Muayyan holatlardan kelib chiqib, Tashkilotchi Viktorina ishtirokchilari oʻrtasida Gʻolib deb topilishi mumkin boʻlgan shaxslarning mavjud emasligi toʻgʻrisida qaror qabul qilish huquqiga ega.

7.5. Ushbu Qoidalar Tashkilotchining veb-saytida e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.